

**BOBURNOMADA MARKAZIY OSIYO VA HINDISTON
HUDUDLARINING TA'RIFLANISHI
CENTRAL ASIA AND INDIA IN BOBURNAMA
DESCRIPTION OF TERRITORIES**

Andijon davlat pedagogika instituti
Filologiya fakulteti O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi
208-guruh talabasi **Jo'rayeva Fotima Husanboy qizi**

Annotatsiya: Biz ushbu maqolada o'zbek va jahon adabiyotining yirik, qadimiy asarlaridan biri "Boburnoma" da aks etgan Markaziy Osiyo hamda Hindiston zaminidagi bir qancha hududlar haqida fikrlarni bilib olamiz. Buyuk siymo, o'z davrining chin ma'noda olimi hisoblangan Zahiriddin Muhammad Bobur ona shahri-Turkiston eliga va keyingi hayoti davomida adolat ila boshqargan Hindiston yerlariga bergan bir qancha ta'riflari ko'z o'ngimizda gavdalanadi.

Annotation: In this article, we will learn about the Central Asian and Indian regions reflected in "Boburnoma", one of great, ancient works of Uzbek and World literature. A number of descriptions of Zahiriddin Muhammad Bobur, a great figure and scientist of his time, given to the people of his native Turkestan and to the lands of India, which he ruled with justice during his later life, are shown before our eyes.

Kalit so'zla: "Boburnoma", geografiya, etimologiya, toponimlar, Konibodom, Hodarvesh.

Key words: "Boburnoma", geography, etymology, toponyms, Konibodom, Hodarvesh.

Zahiriddin Muhammad Boburning hayoti va ijodini o'rganar ekanmiz, merosining eng muhimi va eng yirigi bo'lgan "Boburnoma" da O'rta Osiyo, Afg'oniston, Hindiston xalqlari tarixi, geografiyasi, etnografiyasiga oid nodir va qimmatli ma'lumotlar borligiga guvoh bo'lamiz. Bobur bu asarida turli o'lkalarning tabiati, tog' va daryolari, el, ulusi, ularning tarixi, tili, adabiyoti, o'sha yerdagi nabotot va hayvonat dunyosi singari behisob sohalar to'g'risida shu qadar ko'p ma'lumotlar jam etadiki, ularning aksari hanuzgacha o'z ilmiy qimmatini yo'qotgan emas. "Boburnoma" asarida hududlarning ta'riflanishiga e'tibor qaratsak, bunda ma'naviy qadriyatlarimizning bir bo'lagi hisoblanmish toponimlar va ularning tarixini

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Volume 11. November 2024

o'rganishda noyob manbaa sifatida mingdan ortiq geografik jihatdan mamlakat, shahar, qal'a, dasht, tog', dovon, ko'l, chashma, bog'larning nomlari, ularga bo'lgan zaruratlar keltirilib o'tilgan. Bobur 12 yoshga to'libdiki, hali bolalik nimaligini his qilmaganchoq'idanoq otasining fojiiyali vafoti tufayli toj-u taxt mas'uliyati zimmasiga yuklatildi. Uning dastlabki siyosiy maqsadi Amir Temur davlatining poytaxti, strategik va geografik jihatdan muhim bo'lgan Samarqandni egallash va Movorounnahrda markazlashgan davlatga asos solish edi. Modomiki, bu yo'lda, albatta, shahar va qishloqlar muhim ahamiyat kasb etadi. "Boburnoma"ni o'qir ekanmiz, unda ko'plab geografik nomlarning etimologiyasiga doir asosli, ilmiy faktlar bayon qilinganini ko'ramiz. Avvalo, o'z ota yurti, go'zal va maftunkor Farg'ona vodiysini mahorat bilan tasvirlagan. "Kichik viloyatdir, g'allasi va mevasi farovon, tevarak atrofi bog'lar bilan o'ralgan. G'arbiy tarafida ya'ni Samarqand va Xo'jand tomonda tog' yo'q. Ushbu yoqdan boshqa hech bir tomondan dushman kira olmas". So'ng birma-bir Markaziy Osiyo hududlarini ro'yi-rost tasvirlab chiqadi. Sinchkovlik bilan olib borilgan tadqiqotlarga asoslangan holda viloyatlar holatini bayon qiladi. Bulardan Andijon, O'sh, Marg'inon, Movorounnahr, Xo'jand, Isfara, Koson, Axi, Konibodom kabi shaharlar alohida e'tiborga sazavordir. Bundan tashqari Bobur joy nomlarini tilga olganda ba'zan ularni qanday ma'no anglatishiga, nima uchun bunday nomlanganligiga e'tibor berib o'tadi. Chunonchi, Boburning Konibodom shahrining ma'nosi to'g'risidagi fikri diqqatga loyiqdir. "Konibodom toponimi 2 qism: Kon va Bodom so'zlaridan tashkil topgan bo'lib, "Bodom koni" degan ma'noni bildiradi. Aslida mazkur nomning birinchi qismidagi "Kon" so'zi "mo'l, serob" ma'nolariga hech qanday aloqasi yo'qligini, u "Kand" so'zi bo'lib shahar ma'nosida qo'llanganligini, binobarin, Konibodom "Bodom shahri" ma'nosini anglatishini "Boburnoma" dan bilib olamiz". Shu bilan birga, xalq etimologiyasi namunalari biri "Hodarvesh" toponimiga berilgan izohni ham ushbu asardan topamiz. "Derlarkim bir necha darvesh bu vodiya tund yelga yo'liqib bir-birini topolmay." "Ho darvesh, Ho darvesh" - deya halok bo'libdurlar. Andin beri bu bodiyani "Hodarvesh" derlar".

Bir qancha adolatsizliklar, xiyonatlar tufayli yurtidan ketishga majbur bo'lgan Bobur endi Afg'onistonga yo'l soldi. Bu yerda ichki nizolardan foydalanib o'z navkarlari bilan Kobul va G'aznani egalladi. "Bobur Afg'onistonga o'z yurti kabi qarab, qurilish, obodonlashtirish, kasb-hunar va qishloq xo'jaligini rivojlantirish ishlarini amalga oshirdi". So'ng 1519- yilga kelib Bobur Hindistonni zabt etishni rejalashtiradi. 5,6 yil davomida bir nechta yurishlar uyushtirdi. Nihoyat 1526-yili

Panipatda asosiy raqibi Ibrohim Lodiyning 100 ming kishilik qo'shinini 12 minglik askari bilan tor-mor etdi. Dehlini egalladi, ko'p o'tmay Shimoliy Hindistonning Bengaliyagacha bo'lgan qismini o'ziga bo'ysundirdi. Agrani poytaxt sifatida tanlagan Bobur ,katta qurilishlar va obodonchilik ishlarini olib bordi. Nilufar, Zarafshon bog'lariga tez-tez tashrif buyurib, bu yerlar haqida xo'b yaxshi ma'lumotlarni yozgan. Shuningdek, Bobur Afg'onistondagi viloyatlardan biri Lamg'on to'g'risida yozar ekan, uning besh tuman va ikki bo'lakdan iborat ekanligini ta'kidlaydi hamda nomning kelib chiqishi xususida mana bu fikrlarni bayon qiladi: "Hazrati Nuh payg'ambarning otasi Mehtar Lomning qabri Alishang tumanidadur. Ba'zi tarixta Mehtar Lomni Lamak Lamkon deb turlar. Ul elni xili mulohaza qilib turkim, ba'zi mahal «kof' o'runiga "g'ayn" ta-laffuz qilurlar, bu jihattin g'olibo bu viloyatni Lamg'on deb turlar». Demak, muallifning tushuntirishicha, Lamkon nomi "k" harfining "g" deb aytilishi tufayli Lamg'on shakliga kelib qolgan: Lamkon > Lamg'on. Aytilganlardan anglashiladiki, Kashmir kas etnonimiga aloqador holda vujudga kelgan etnooykonim, Lamg'on shahri nomi bilan yuritilgan antropotonim sanaladi. Shohi Qobul oronimining kelib chiqishini shunday tushuntiradi: "Qal'aning g'arb-janub tarafi kichikraq parcha tog' tushubtur. Ul tog'ning qo'llasida Shohi Qobul imorat kilgani uchun bu tog'ni Shoxi Qobul derlar". Anglashiladiki, Shohi Qobul tog'i Qobul shohi nomi bilan atalgan. Bobur ba'zi hollarda joy nomlarini izohlashda aholi orasida tarqalgan turli afsona, rivoyat, aqidalarni — xalq etimologiyasini ham bayon etadi.

Xulosa qilib aytganda, butun umri davomida boshiga qancha-qancha og'ir kulfatlar tushgan bo'lsa ham, Bobur barchasini odillik bilan yengdi. Ammo, Vatan so'g'inchiga hech ham malham topa olmadi. Yurtga qaytish umidi bir soniya bo'lsa ham so'nmadi. Bobur o'z Vatanini qo'msab yashadi. Shundanmikan, o'zga yurtlarning har bir yerida o'zini begonadek bilardi. Bunga qaramay, yashagan yerlarining har qarichini ro'yi- rost tasvirlab, odil hukm chiqardi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Zahiriddin Muhammad Bobur “Boburnima”. Toshkent “O'qituvchi” 2017
2. Zahriddin Muhammad Boburning Ensiklopediyasi. T: “Sharq” 2014.
3. Ziyovullox A. O'zbek davlatchiligi tarixi. Eng qadimgi davrdan Rossiya bosqiniga qadar. T: Sharq 2000. Bet 365.
4. Sotimov G. “Bobur yo'lbars”. T: O'zbekiston 2018. Bet 296.